



# 2-bosqich 1-semestr. 4-mavzu: Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari



TILAME



Adabiyot

Abdukadirova M. M.



Reja:



1. Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodi.
2. “Qutadg‘u bilig” asarining yozilishi haqida ma’lumot.
3. “Qutadg‘u bilig” asarining badiiy xususiyati.
4. “Qutadg‘u bilig” asari tarjimalari.



## DARSNING SHIORI

**“BILIM BERISH BAXT ,  
BILIM OLİSH SAODAT”**

**MAQOL**





**X-XII asrlarda turkiy tilda-  
gi adabiyot ancha rivojlandi.  
Bu davrda bir qator shoir va  
adiblar etishib chiqdi. Ana  
shulardan biri *Yusuf Xos  
Hojib* dir. Yusuf Xos Hojib  
*Sharq Uyg'onish davrining  
turkiy muhitdag'i dastlabki  
yirik siymosidir. U Quz o'rdu  
- Bolosog'un shahrida dun-  
yoga kelgan. Zamonasining  
yetakchi fanlaridan yaxshi  
bilim olgan. Bu buyuk allo-  
ma haqida uning o'z asari-  
dan boshqa biror yerda ma'-  
lumotlar saqlangan emas.***



**Quz o'rdu** - turkiylar istiqomat qiladigan qadimiy shaharlardan biri. U **Bolosog'un** nomi bilan ham mashhur bo'lgan. Bu shahar XI asrda yaratilgan yana bir muhtasham obida - **Mahmud Koshg'ariyning "Devoihu lug'otit-turk"** asarida bir necha marta tilga olindi. Jumladan, bu shaharning arg'un lahjasida **Quz ulus**, o'g'uz lahjasida esa **Quz o'rdu** deb yuritilishini Mahmud Koshg'ariy maxsus qayd etadi.



TIIAME

**Yusuf Xos Hojib ham Mahmud Koshg'ariyga o'xshab, ko'pgina o'lkalarni kezib chiqqan, talaygina sayr-u sayohatlarda bo'lgan. Uning quyidagi misralari buni isbotlaydi:**

*Bu tug'mish elindin chiqib barg'ani,  
Kitabni qo'shuban tugal qilg'ani.*

*(Bu o'z tug'ilgan elidan chiqib borgani,  
Kitobni jamlab tugal qilgani.)*


**Adib asarini yozishga bir yarim yil vaqt sarflaydi:**

*Tugal o'n sakkiz ayda aydim bu so'z,  
o'durdum, adirdim so'z evdim tera.*

*(Bu so'zlarni tugal o'n sakkiz oyda aytib  
bo'ldim, tanladim, farqladim, terib so'z yig'ib  
to'pladim.)*

## DOSTON NOMINING MA'NOSI.UZ

- «Qut» — baxt, saodat, «bilik» esa — bilim degani.
- Shunga ko‘ra, asarning nomini «Baxtga eltuvchi bilim» yoki «Saodatga yo‘llovchi bilim» deb tarjima qilish mumkin.
- Abdurauf Fitrat uni «Baxtliklanish bilimi» deb o‘girgan.





**Asardagi nasriy muqaddi-mada shunday deyiladi:**

*Ammo bu kitobni Qashqarda tugal qilib, Mashriq maliki*


*Tavg'achxon dargohiga keltiribdi.*

*Malik uni yorlaqab, ulug'lab, o'z (saroyida) Xos Hojiblik (lavozimi)ni unga beribdi. Shuning uchun Yusuf Ulug' Xos Hojib deb mashhur nomi tarqalibdi.*



TIIAME

- **Bizga Yusuf Xos Hojibning birligining  
«Qutadg'u bilig» asari yetib kelgan.  
Shoir hayotiga oid ma'lumotlarni  
ham faqat shu doston dangina  
topamiz. Asar hijriy 462, ya'ni  
milodiy 1069-1070-yili Koshg'arda  
yozib tugallangan.**
- **Hajmi 6 ming 409 baytdan iborat.**





TILAME

**Hajman katta, badiiy jihatdan puxta bo‘lgan «Qutadg‘u bilig» 6500 bayt yoki 13 ming misraqa yaqin she’rdan iborat.**

**Muallif o‘z asariga «*Qutadg‘u bilig*» deb nom beradi. Bu *baxt va saodatga eltuvchi bilim, ta’llim* demakdir. Shoir shunday yozadi:**


*Kitab ati urdum «Qutadg‘u bilig»,  
Qutadsu o‘qug‘lika tutsu elig.  
(Kitob otini «Qutadg‘u bilig» qo‘ydim,  
o‘quvchiga baxt keltirsin, qo‘lidan tutsin.)*



TIIAME

## **Yusuf Xos Hojib**

U "Qutadg'u bilig" dostonida davlatni boshqarish amallari, qoidalari va siyosiy - axloqiy munosabatlarni jamiyatda qaror toptirishga qaratilgan qarashlari bilan e'tiborlidir. U davlat boshqaruvi va xizmatini tashkil etish turlarini hamda shu darajalarga muvofiq tasniflaydi.





**Markazlashgan, yagona feodal davlatni barpo etish, uni mustahkamlash, idora qiliш, uluslar va ulus ichidagi begliklar o'rtasidagi nizolar-ga barham berish Tavg'achxonlarning ezgu orzusi edi.**

**Xuddi ana shunday davlatni idora qilish usulini, siyosatini, qonun-qoidalarini, rasm-u odatlarini, axloq me'yorlarini o'zida mujassamlashtirgan nizomnoma, qomus sifatida «*Qutadg'u bilig*» yuzaga keldi.**

## DOSTONNING ASOSIY QAHRAMONLARI

### ■ Dostonda to‘rt asosiy qahramon bor:

1. **Kuntug‘di** (chiqqan Quyosh) - elig, ya’ni hukmdor. U adolat ramzi bo‘lib kelgan;
2. **Oyo‘idi** (to‘lgan Oy) - vazir. U baxt va davlat ramzi hisoblanadi;
3. **O‘gdulmish** aqlga to‘lgan)- vazirning o‘g‘li. U aql va zakovat ramzi yanglig‘ tasvirlangan;
4. **O‘zg‘urmish** (uyg‘ongan) - vazirning qarindoshi. U asarda qanoat, ofiyat, ya’ni sog‘lomlik ramzi sifatida qalamga olingan.



TILAME

**Shu sababdandirkim, kitobni  
chinliklar «*Adab ul-muluk*» («*Hukmdorlar odobi*»), mochinliklar «*Oyin ul-mamlakat*» («*Mamlakatning tartib usuli*»), sharqliklar «*Zain ul-umaro*» («*Amirlar ziynati*»), eronliklar «*Shohnomai turkiy*», turonliklar «*Qutadg'u bilig*», ba'zilar «*Pandnomai muluk*» («*Hukmdorlar pandnomasi*») deganlar.**

# Bebaho sovg`a

- Yusuf Xos Hojib dostonini tugallagach, uni zamon hukmdori (elig) ***Tavg`achxon Ulug` Bug`ra Qoraxonga*** taqdim etadi.
- Asarning bor-yo`g`i uch nusxasiga saqlanib qolgan:
  1. **Vena nusxasi.uz**
  2. **Qohira nusxasi.**
  3. **Namangan nusxasi.**





TILAME


## 2. QOHIRA NUSXASI

■ 1896-yili asarning arab yozuvi  
asosidagi turkiy alifboda ko‘chirilgan  
nusxasi Qohirada topildi.



### 3. NAMANGAN NUSXASI

- Sharqshunos Valizoda 1914-yilning 20-aprelida Qozon universiteti qoshidagi Arxeologiya, tarix va etnografiya jamiyatiga Farg'ona ekspeditsiyasi haqida yozgan hisobotida namanganlik **Muhammad hoji Eshon Lolareshev** degan kishining qo'lida «Qutadg'u biftig»ning yana bir nusxasi mavjudligi haqida ma'lumot beradi.
- Buyuk o'zbek olimi (atoqli adabiyotshunos) **Abdurauf Fitrat 1924-yili** Muhammad hoji Eshon Lolareshdan shu qo'lyozmani olishga muyassar bo'ladi.



Quyidagi savollarga yozma javob bering.

- 1.Yusuf Xos Hojib qaysi davrda ijod qilgan?
- 2.Undan qolgan yodgorlik asar nomi nima va u qaysi tilda?
- 3.Nima uchun adib Yusuf Xos Hojib ismi bilan tanilgan?
- 4.“Qutadg‘u bilig” asari qaysi hukmdorga taqdim etilgan?
- 5.Asar mazmuni nimadan iborat?



# Test topshiriqlarini yeching.



TILAME

1. So‘zga berilgan quyidagi ta’rif kimning qalamiga mansub?

Kishi so‘z bila qo‘pti, bo‘ldi malik,

O‘kush so‘z bashig‘ yerka qildi kulik.

- a) Alisher Navoiy
- b) Mahmud Koshg‘ariy
- c) Yusuf Xos Hojib
- d) Sayfi Saroyi

2. Muayyan mamlakatlar milliy adabiyotining tarixi, rivojlanish bosqichlarini, biror xalq yoki jahon adabiyoti vakili bo‘lgan buyuk san’atkorlarning hayoti va ijodini ... o‘rganadi.

- a) Adabiyot tarixi 4 a
- b) Adabiyot nazariyasi
- c) Adabiyot qoidalari
- d) Adabiy tanqid



TIIAME

3.Qadimgi nasr namunalaridan birini belgilang.

- a)“Qutadg‘u bilig”      d) “Devon-u lug‘atit turk”
- b)“Oltin yoruq”      c) “Xamsa”

4. Qaysi adib “Qutadg‘u bilig” dostonini “Baxtliklanish bilimi” deb o‘girgan?

- a) Cho‘lpon                          b) A.Navoiy
- c) Fitrat                                d) Behbudiy



## Uyga vazifa.

“Qutadg‘u bilig” asari siymolari, ularning asar mazmunini yoritishdagi o‘rni haqida insho yozish.